




O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI


  
"Himoyaga tavsiya etilsin":  
Fakultet dekani v.b.  
f.f.n., dotsent Z.B.Qobilova  
" 20 05 2019-y


5111200 – O'zbek tili va adabiyoti fakulteti  
403-guruh talabasi Nasirov Muslimjon Maxsutali-o'g'lining  
"Badiiy matnga assotsiativ yondashuv" mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

  
Ilmiy rahbar:  
A. Xasanov,  
o'zbek tili  
kafedrası dotsenti, f.f.n.

  
Taqrizchilar:  
U. Qo'ziyev  
NamDU o'zbek tili  
kafedrası o'qituvchisi,  
Falsafa fanlari doktori

  
D. Jamoliddinova.  
QDPI Boshlang'ich ta'lim  
kafedrası dotsenti, f.f.n.

"Himoyaga tavsiya etilsin":  
O'zbek tili kafedrası mudiri  
  
f.f.n., dotsent Sh. Akramov  
" 11 05 2019-y

## **XULOSASI**

Til va assotsiativ tafakkurga aloqador masalalar nafaqat sistem-struktur tilshunoslikda, balki psixolingvistika, neyrolingvistika, ijtimoiy psixologiya, mantiq va mantiqning muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Assotsiatsiyalarni bir necha fanlar uyg'unligida tahlil etish til masalalarini aniqroq yoritish imkonini berish bilan birga, shaxs tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga zamin yaratadi. Bugungi kunda jamiyatimizda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar hamda fan-texnika taraqqiyoti davomida o'zbek tilshunosligida tilning immanent realligiga e'tiborning kuchayishiga olib kelmoqda. Tadqiqot davomida asosiy e'tibor antroposentrizmga asoslangan assotsiativ birliklarning badiiy matn hosil qilishdagi o'rnini o'rganishga qaratilgan. Bunda nasriy va she'riy matnlardagi verbal assotsiatsiyalar, assotsiativ maydon hosil qiluvchi birliklar antroposentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Ishning birinchi bobida assotsiativ tilshunoslik va uning shakllanish tarixi va bosqichlari borasida fikr yuritiladi. Mashhur tilshunos olimlarning assotsiativ tilshunoslik yuzasidan olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor berib o'tiladi. Shuningdek, assotsiativ tilshunoslikning boshqa tilshunoslik turlariga munosabati ishda atroflicha ochib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida verbal assotsiatsiyalarning badiiy matn tarkibidagi xususiyatlarini tahlil qilingan, she'riy va nasriy badiiy matnlarning tarkib topishidagi assotsiativ birliklarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan; assotsiativ maydonni hosil qiluvchi omillar guruhlarga ajratilgan; badiiy matnning assotsiativ maydoni statistik va semantik jihatdan tahlil qilingan.

Bitiruvni yozish jarayonida qo'lga kiritilgan asosiy natijalar ishning xulosa qismida umumlashtirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati o'rinli keltirilgan.

Ishning ijobiy yutuqlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: assotsiativ tilshunoslik masalasi ilk bor BMI doirasida o'rganilgan; mazkur ishning asosiy tayanch tushunchalariga izohlar faktik misollar orqali izchil berilgan; verbal assotsiatsiyalarning lingvistik mohiyati she'riy va nasriy matnlar orqali yoritib berilgan; har bir tahlilga tortilgan matnning assotsiativ maydoni hosil qilingan. Verbal assotsiatsiyalarning matnning fon mavzusini ochishdagi ahamiyatli jihatlari yoritilgan.

BMIning ijobiy yutuqlari bilan bir qatorda ayrim o'rinlarda juz'iy nuqsonlar ham uchray turadi. Masalan so'z takrorlari, uslubiy qaytariqlar va boshqalar. Lekin bu juz'iy kamchiliklar ishning umumiy ilmiy saviyasiga ta'sir etmaydi. BMIni muvaffaqiyatli tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya qilaman.

**Ilmiy rahbar:**



**O'zbek tili kefedrasi dotsenti  
f.f.nomzodi A.A.Xasanov**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti**  
**403-guruh talabasi Nasirov Muslimjon Maxsutali o'g'lining "Badiiy matnga**  
**assotsiativ yondashuv" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Har qanday matnning shakllanishida muallifning tasvir obyekti bilan bog'liq verbal assotsiatsiyalar muhim o'rin tutadi. Verbal assotsiatsiyalar matni hosil qiluvchi, uni semantik-sintaktik jihatdan shakllantiruvchi asosiy tayanch birliklar vazifasini o'taydi. Bu jihatdan qaraganda hech bir matnning lingvistik xususiyatiga assotsiativ tahlillarsiz haqqoniy baho berib bo'lmasligi ma'lum bo'ladi.

Shu jihatdan qaralganda Nasirov Muslimjon Maxsutali-o'g'lining mazkur ishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodi, amaliy va nazariy ahamiyati, tuzilishi haqida so'z boradi.

Ikki bob asosida yozilgan ushbu bitiruv malakaviy ishda verbal assotsiatsiyalarning badiiy matni semantik-sintaktik jihatdan shakllantirishdagi roli o'rganilgan.

Talaba BMIning I bobida assotsiativ tilshunoslikning paydo bo'lish tarixiga to'xtalgan. Assotsiativ tilshunoslik rivojiga hissa qo'shgan tilshunoslarning ilmiy-nazariy tadqiqotlarini sharhlashga harakat qilgan. Assotsiativ munosabatlarning boshqa paradigmalarga bo'lgan munosabatini misollar orqali sharhlab o'tgan. Assotsiativ tilshunoslikning asosiy tayanch tushunchalari hisoblangan birliklarni tahlil qilgan. Verbal assotsiatsiyalar asosida hosil bo'ladigan assotsiativ maydonga ta'rif berib o'tgan.

Nasirov Muslimjon BMIning II bobida tildagi verbal assotsiatsiyalarning badiiy matn hosil qilishdagi o'rnini tahlil qilgan. Dastavval, badiiy matnning assotsiativ maydoniga ta'rif bergan hamda ushbu maydonni tahlil qilish usullari haqida ma'lumotlar keltirgan. Badiiy matnning assotsiativ maydonini hosil qilishda she'riy hamda nasriy matnlar uchun alohida fasllar ajratgan. She'riy matnlarni assotsiativ tahlil qilishda ham ikki yo'nalishdan brogan. Ya'ni, mumtoz

she'riy matnlarni tahlil qilishda poetik san'atlar hosil bo'lishidagi verbal assotsiatsiyalarni o'rgangan bo'lsa, zamonaviy she'riy matnlarni assotsiativ tahlil qilish orqali ularning assotsiativ maydonini hosil qilgan.

Nasriy matnlarni assotsiativ tilshunoslik usullari orqali tahlil qilib, matnning assotsiativ maydonlarini hosil qilgan. Hikoyalarning fon g'oyasini ochishdagi assotsiativ munosabatlarning vazifalarini o'rgangan.

Talaba ish davomida assotsiativ munosabatlarning paydo bo'lishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillarni guruhlariga ajratib chiqqan, tahlil uchun olingan har bir badiiy matnning semantik va sintaktik yaxlitligini ta'minlashdagi verbal assotsiatsiyalarning o'rnini yaxshi ochib bera olgan.

BMIning yutuqlari bilan birgalikda ayrim o'rinlarda juz'iy kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Masalan, talaba mumtoz she'riy matnlarni assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish davomida fikriy izchilikni yo'qotgan. Nasriy matnlar ham ayrim o'rinlarda sodda tahlil qilingan.

Umuman, ish talab darajasida bajarilgan.

Himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:



QDPI Boshlang'ich ta'lim  
kafedrasi dotsenti, f.f.n.  
D. Jamoliddinova.